Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimi, undagi muhim masalalar, oliy ta'lim muassasalari, ularning faoliyatidagi asosiy tendensiyalar, ta'lim klasterlari hamda ta'lim klasterlarining barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishdagi o'rni va ahamiyati nazariy yondashuvlar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, milliy iqtisodiyotda ta'lim klasterlarning shakllanishi va takomillashuvining o'ziga xos xususiyatlari, ularning maqsad va vazifalari, barqaror rivojlanish sharoitida ularning faoliyati haqida ham batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim tizimi, oliy ta'lim muassasalari, ta'lim klasterlari, barqaror rivojlanish, barqaror rivojlanish maqsadlari, sifatli ta'lim, yashil iqtisodiyot va yashil rivojlanish, innovasion taraqqiyot, xalqaro hamkorlik, milliy iqtisodiyot, klaster faoliyati.

Abstract: The article explores the higher education system, its key issues, higher education institutions, and the main trends in their activities, as well as educational clusters and their role and significance in achieving the Sustainable Development Goals, based on theoretical approaches. Furthermore, the paper provides detailed insights into the specific features of the formation and development of educational clusters in the national economy, their objectives and tasks, as well as their activities under conditions of sustainable development.

Key words: higher education system, higher education institutions, educational clusters, sustainable development, Sustainable Development Goals (SDGs), quality education, green economy and green growth, innovative development, international cooperation, national economy, cluster performance.

Аннотация: В статье рассмотрены система высшего образования, ее ключевые проблемы, высшие учебные заведения, основные тенденции в их деятельности, а также образовательные кластеры и их роль и значение в достижении целей устойчивого развития на основе теоретических подходов. Кроме того, представлена подробная информация об особенностях формирования и совершенствования образовательных кластеров в национальной экономике, их целях и задачах, а также о их деятельности в условиях устойчивого развития.

Ключевые слова: система высшего образования, высшие учебные заведения, образовательные кластеры, устойчивое развитие, цели устойчивого развития, качественное образование, зеленая экономика и зеленое развитие, инновационное развитие, международное сотрудничество, национальная экономика, деятельность кластеров.

KIRISH

Hozirgi kundagi globallashuv, modernizatsiyalashuv va raqobatlashuv jarayonlarining chuqurlashib borayotgan sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror taraqqiyot yo'lida amalga oshirayotgan sa'y-harakatlari natijaviylikka erishishi uchun iqtisodiy o'sishning zamonaviy va ta'sirchan omillari hamda mexanizmlariga ehtiyoj mavjudligi ko'rinmoqda. Ma'lumki, iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri bu mehnat bozorida talabgor bo'lgan ishchi kuchi, inson kapitalidir. Ta'sirchan mexanizm esa aynan mana shu inson kapitali va malakali ishchi kuchini tayyorlovchi ta'lim tizimidir. Ayni damda ta'lim tizimi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Bunday sharoitda ta'lim sohasi, xususan, oliy ta'lim muassasalari iqtisodiyotning asosiy rivojlantiruvchi kuchi, innovasion iqtisodiyotning asosi sifatida faoliyat olib borishi, raqobatbardoshligini oshirish uchun o'z ta'sir doirasini kengaytirishi hamda samarali integrasion hamkorlikdagi ta'lim klasterlari shaklida faoliyat olib borishi samarali natijalarni ta'minlab beradi.

Jahondagi yirik, oliy darajadagi universitetlar ham ta'lim klasterlari sifatidagi faoliyatlari orqali o'z ilmiy-innovasion va tadbirkorlik faoliyatlari natijasida milliy iqtisodiyotlarning fan va texnologiyalarga asoslangan drayverlariga aylangan. Ular ayni damda jahon miqyosida yuz berayotgan global muammolarga yechim topish, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish kabi vazifalarni bajarmoqda.



Universitetlar barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDG – Sustainable Development Goals) qo'llab-quvvatlovchi turli tashabbuslarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, "yashil kampuslar", ya'ni ekologik toza infratuzilma, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni saralash va qayta ishlashga asoslangan kampuslarni yaratish; talabalarning ekologik ong va madaniyatini oshirish; fanlararo yo'nalishlarda barqarorlikni ta'lim berishga asoslangan dasturlarni joriy etish; shuningdek, atrof-muhit muammolariga bag'ishlangan innovasion loyihalar va "yashil texnologiyalar"ni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish shular jumlasidandir.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish orqali universitetlarning milliy va xalqaro darajadagi raqobatbardoshligi ta'minlanadi, ularning xalqaro reytinglarga kirish imkoniyatlari ortib boradi. Ushbu reytinglar universitetlarga xalqaro nufuzni oshirish, talabalar va investorlar uchun jozibadorlikni kuchaytirish, grantlar va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu ko'rsatkichlar universitetlarning "yashil" faoliyatini har tomonlama baholaydi va reytingdagi o'rniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Universitetlar tomonidan barqaror taraqqiyot uchun tashabbuslarni ilgari surish va ularni talabalar bilan birgalikda amalga oshirish universitetlarning nufuzini oshiradi hamda uzoq muddatli muvaffaqiyatli faoliyatining kaliti sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ta'lim klasterlari va ularning barqaror taraqqiyotdagi o'rnini o'rganish maqsadida qiyosiy-tahliliy, tizimli yondashuv, induktiv va deduktiv tahlil usullari, shuningdek, klasterlar faoliyatiga oid kontent tahlil hamda SWOT tahlillardan foydalanildi. Tahlil jarayonida rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar, xalqaro reyting tashkilotlarining statistik va tahliliy hisobotlari, shuningdek, milliy normativ-huquqiy hujjatlar asos qilib olindi. Milliy ta'lim klasterlari faoliyatining samaradorligini baholashda ham statistik ma'lumotlardan keng foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klasterlar mavzusining dolzarbligi va ahamiyatini inobatga olib, milliy iqtisodiyotda klasterlar, ularning rivojlanishi, iqtisodiy klasterning mohiyati hamda ta'lim klasterlari bo'yicha milliy va xalqaro darajada iqtisodchi olimlar tomonidan zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlari keng ko'lamda amalga oshirilgan. Mavzu bo'yicha bajarilgan ilmiy ishlarni tahlil qilish uchun Google Scholar ilmiy bazasi ma'lumotlariga murojaat etish orqali klasterlar faoliyatiga oid kontent tahlilni amalga oshirish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Klasterlar va ta'lim klasteri terminlarining kontent tahlili

Terminlar	29.01.2016 ¹	21.07.2025 ²	28.07.2025 ³
	Rus tilidagi qidiruv natijalari		O'zbek tilidagi qidiruv natijalari
Развитие кластеров (Klasterlarning rivojlanishi)	22 800	254 000	363
Кластеры в экономике (Iqtisodiyotda klasterlar)	16 000	105 000	187
Понятие экономического кластера (Iqtisodiy klaster tushunchasi)	14 100	30 300	386
Образовательный кластер (Ta'lim klasteri)	6 410	31 300	938

Jadval natijalari bo'yicha shuni xulosa qilish mumkinki, klasterlarning rivojlanishi bo'yicha rus tilidagi qidiruv natijalariga ko'ra, mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar so'nggi 10 yillikda 10 barobardan ortiq o'sgan. Bu holat ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarning, davlat dasturlarining hamda iqtisodiy tahlillarning keng ko'lamda olib borilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, aynan ta'lim klasterlari bo'yicha natijalar qariyb 5 barobarga ortgani kuzatilmoqda. Bu esa ta'lim tizimidagi islohotlar, ilmiy izlanishlar, ta'limning raqobatbardoshligini oshirish hamda ta'lim sohasiga innovatsiyalarni joriy qilishga oid tadqiqotlarning dolzarbligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

1 Кластеризация в современном образовании: методология и практика / Н. М. Большаков, В.В.Жиделева, Л. А. Гурьева, Е. А. Рауш; науч. рук. д-р экон. наук, проф., акад. РАЕН Н. М. Большаков. — Санкт-Петербург: СПбГЛТУ, 2016. — 200 с. ISBN 978-5-9239-0688-2. Стр. 18

2 Google Scholar ilmiy bazasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3 Google Scholar ilmiy bazasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



O'zbek tilidagi qidiruv natijalariga keladigan bo'lsak, bunda holat bir muncha farqli. Chunki MDH, xususan Rossiyada klasterlar, klaster siyosati, ta'lim klasterlari faoliyati va ularni o'rganish hamda tadqiq etish jarayonlari 2000-yillardan boshlangan va hozirgi kunda rivojlanish hamda takomillashuv bosqichiga chiqqan. O'zbekistonda esa klaster tushunchasi va klasterlashuv jarayonlari biroz kechroq boshlangan bo'lsa-da, ayni paytda ularning dolzarbligi ortib borayotganini ta'kidlash mumkin. Klasterlarning rivojlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar soni 363 tani tashkil etgan bo'lsa, aynan ta'lim klasterlari bo'yicha tadqiqotlar esa unga nisbatan 2,5 barobar ko'p, ya'ni 938 ta ilmiy izlanishlarni ko'rsatmoqda. Bu esa O'zbekistonda klasterli yondashuvning, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida klasterlarning samarali faoliyati yo'lga qo'yilayotgani va ularni o'rganish hamda tadqiq qilish jarayonlari takomillashib borayotganidan dalolat beradi.

Mazkur kontent tahlil ingliz tilida amalga oshirilganda, 2025-yil holatiga ko'ra, "development of clusters" (klasterlarning rivojlanishi) bo'yicha 8,5 millionga yaqin ilmiy tadqiqotlar mavjudligi, "educational cluster" (ta'lim klasteri) bo'yicha esa 4,7 millionga yaqin ilmiy ishlar bajarilgani aniqlangan⁴.

Bu holat esa jahonda, xususan AQSh, Yevropa Ittifoqi va boshqa bir qator rivojlangan mamlakatlarda klasterlarni o'rganish hamda ta'lim klasterlari faoliyatini tadqiq etish nisbatan ilgari boshlanganini ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etib, ilmiy va innovasion rivojlanishning, fan va texnologiyalarga asoslangan taraqqiyotning asosiga aylanganidan dalolat beradi.

Klasterlar faoliyati, ularning samaradorligi hamda faoliyatiga xos jihatlar mavjudligi haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar va biznes klasteriga oid yondashuvlar Garvard biznes maktabi professori, raqobatbardoshlik rombi nazariyasi asoschisi Maykl Porterga tegishlidir.

Aynan ta'lim klasterlari faoliyati bo'yicha esa B. Klark, L. Leydesdorff va X. Etzkovitz tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan⁵.

M. Portering fikricha, "klaster – bu birgalikda ish olib boruvchi, ayni paytda bir-biri bilan raqobatlashuvchi ixtisoslashgan, o'zaro bog'langan kompaniyalar, ixtisoslashgan tovar va xizmatlar yetkazib beruvchilar, tegishli tarmoqlardagi firmalar, shuningdek, ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lum sohalardagi tashkilotlarning geografik jihatdan to'plangan guruhidir"⁶.

Shuningdek, M. Porter klasterlarning samarasi haqida shunday deydi: "Klasterlar mavjud va yangi paydo bo'layotgan tarmoqlarni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Ular eksport hajmini oshirish va xorijiy investisiyalarni jalb etishda harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, klasterlar yangi muloqot yo'llarini shakllantirish uchun forum yaratadi. Bu muloqot yo'llari kompaniyalar, davlat agentliklari va tashkilotlar, xususan maktablar, universitetlar hamda ijtimoiy ahamiyatga ega korxonalar o'rtasida mavjud bo'lishi va rivojlanishi lozim"⁷.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalari ta'lim klasterining yadrosi sifatida ilmiy-tadqiqot muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, biznes vakillari hamda davlat hokimiyat organlari bilan o'zaro raqobat va kooperatsiyaga asoslangan faoliyati natijasida sifatli va raqobatbardosh ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlarni tayyorlaydi, ilmiy tadqiqot sohasida yangi ishlanmalarni yaratadi va ularni tijoratlashtiradi. Eng muhimi, milliy va xalqaro ta'lim xizmatlari bozorida mustahkam o'rin egallash imkoniyatiga ega bo'lib, buning natijasida xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarga ega bo'lgan, ilmiy-innovasion hamda tadbirkorlik universitetlari sifatida o'z statusini mustahkamlab boradi.

QS xalqaro reyting tashkiloti tahlilchilari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2030-yilga kelib global iqtisodiyot barqaror o'sishni namoyon etadi. Bu o'sish so'nggi o'n yillikdagi sust mahsuldorlik davridan keyin yuzaga keladi. Rivojlangan davlatlardagi demografik tendensiyalar mehnat resurslari ta'minotini susaytirgan bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlardan yangi, yuqori malakali ishchi kuchi global mehnat bozoriga qo'shilib, mahsuldorlikning ortishi va global daromad tengligining yaxshilanishiga hissa qo'shmoqda.

Mutaxassislar fikricha, an'anaviy ta'lim muassasalari hanuzgacha ishonchli bilim manbai va ish bilan ta'minlanish hamda farovonlikka erishishning eng samarali vositasi bo'lib qolmoqda. Biroq ilg'or iqtisodiyotlarda demografik o'zgarishlar, avtomatlashtirish va sanoat ehtiyojlarining o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan doimiy malaka tanqisligi muammosi an'anaviy ta'lim tizimlariga katta bosim keltirib chiqarmoqda. Chunki ushbu tizimlar aksariyat ishsiz qolgan ishchilarni yangi kasblarga mos ravishda qayta tayyorlashga zarur bo'lgan

4 Google Scholar ilmiy bazasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

5 Clark, B.R. (1983). The Higher Education System: Academic Organization in Cross-national Perspective. University of California Press: Los Angeles, CA.; Leydesdorff, L., & Etzkowitz, H. (2001). The Transformation of University-Industry-Government Relations. Electronic Journal of Sociology, 5, 338-344.

6 Портер М. Международная конкуренция: Конкурентные преимущества стран. Пер. с англ./Под ред. И с предисловием В.Д. Щетинина. - М.: Международные отношения, 1993. – 896 с. Стр. 170

7 Портер М. Конкуренция.: Пер. с англ.: Уч. пос. - М.: Издательский дом "Вильямс", 2000. – 495 с. 207 стр.



ko'lamda, tezlikda va ilm oluvchilar kutayotgan shaklda xizmat ko'rsatishga yetarli darajada moslashmaganligi ko'zga tashlanmoqda⁸.

Aynan mana shu moslashuvni yo'lga qo'yish uchun oliy ta'lim muassasalari ta'lim klasterlari sifatida ilmiy-tadqiqot muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, biznes vakillari hamda davlat hokimiyat organlari bilan o'zaro raqobat va kooperatsiyaga asoslangan faoliyat olib borishi, fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishi lozim. Bu jarayon natijasida oliy ta'lim tizimidagi dolzarb masalalar, xususan mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash, barqaror taraqqiyot uchun sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, xalqaro reytinglarga kirish, shuningdek innovasion iqtisodiyot hamda tadbirkorlik sohasidagi muammolarga yechim topish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda o'z hissalarini qo'shishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimidagi oliy ta'lim muassasalarining nufuzini oshirish, ularni iqtisodiyotning drayveriga, fan va texnologiyalar hamda fundamental va amaliy tadqiqotlar markaziga aylantirish maqsadida OTMlarni o'zlarini klaster yadrosiga aylantirish orqali ta'lim klasterlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Endilikda OTMlar ta'lim klasterida tashabbus ko'rsatib, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va hukumat organlari bilan raqobat hamda innovatsiyalarga asoslangan integrasion hamkorlikni rivojlantiradi. Natijada sifatli ta'lim xizmatlari yaratiladi.

Ta'lim tizimida ta'lim resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan yangi tashkiliy tuzilmani yo'lga qo'yish uchun samarali institusional islohotlar va puxta o'ylangan ta'lim siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim klasteri siyosati oliy ta'limni modernizatsiya qilish uchun shart-sharoit yaratish, raqobatbardosh ta'lim klasterlarini shakllantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisidan iboratdir.

Klasterlar hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga, ta'lim muassasalari, korxonalar, ilmiy muassasalar va hokimiyat organlari o'rtasida konstruktiv munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim xizmatlari bozorida raqobat sharoitida ish beruvchilar manfaatlaridan kelib chiqib, ushbu bozorga birinchi bo'lib kompleks innovasion ta'lim mahsuloti bilan chiqqan klasterlar samaradorlikka erishadi.

Ta'lim klasteri – bu yangi raqobatbardosh innovasion ta'lim mahsulotlari hamda qo'shilgan qiymatlarni yaratish uchun davlat boshqaruv va hokimiyat organlarining manfaatdor shaxslari ishtirokida professional oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, biznes va tadbirkorlik korxonalari birlashuvi natijasida yaratilgan uyushmadir⁹.

Bunday klaster bosh ilmiy-ta'lim va intellektual bilimlar markazi bo'lgan oliy ta'lim muassasasi – klaster yadrosi atrofida o'zining raqobatbardosh ustunliklarini kuchaytirish, oliy ta'limning natijaviyligi va ta'lim sifatini oshirish resurslaridan, ta'lim, ilmiy-tadqiqot va professional faoliyat natijalaridan birgalikda foydalanishni nazarda tutuvchi ta'lim tashkilotlarining turli ko'rinishlari, shakllari va darajadagilarini birlashtirishni anglatadi.

Ta'lim klasterini yaratishdan maqsad – ilmtalab tarmoqlar va sohalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, universitet va biznes-jamiyatning birgalikdagi iqtisodiy kuchlari orqali bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi innovasion tovar hamda xizmatlarni ishlab chiqish va tijoratlashtirishni yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Ta'lim klasterining asosiy belgilariga universitetning ilmiy hamda biznes-jamiyatlari bilan ikki tomonlama teng manfaatli maqsadlarga erishish bo'yicha sinergetik munosabatlarning tizimli tashkil etilgan asoslariga ega bo'lgan tashqi aloqalari, universitetlar, korxonalar va tashkilotlarning bir-birini to'ldiruvchi funksiyalari, klaster a'zolarining bir-birining raqobatbardoshligini oshirishga bo'lgan intilishlari, klasteri murakkab tizim sifatida aniqlab olish hamda unda o'sish nuqtalarining mavjudligi kiradi.

Ta'lim klasterining SWOT tahliliga ko'ra, kuchli tomonlariga – sinergetik samaradorlikning mavjudligi, o'zaro raqobat va kooperatsiyaning amal qilishi, ta'limni ilm bilan, ishlab chiqarish va amaliyot bilan uyg'un olib borilishi hamda hamkorlikda ilmiy tadqiqot loyihalarini bajarish va tijoratlashtirishdan daromad olish imkoniyatlari kiradi. Kuchsiz tomonlariga – malakali kadrlar yetishmovchiligi, pedagoglar va mutaxassislarning yangi tizimga moslashish jarayoni uzoq vaqt talab qilishi, ta'lim tizimidagi yangi tendensiyalar hamda standartlarning doimiy ravishda malaka oshirishni talab qilishi kiritiladi. Imkoniyatlariga esa – klasterga xorijiy mutaxassislarning va investitsiyalarni jalb qilish orqali faoliyatni yanada takomillashtirish, ta'limni raqamlashtirish, yangi ta'lim platformalari va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ishlab chiqarish korxonalari va biznes vakillarining malakali mutaxassislarning hamda yangi turdagi tovar va xizmatlar evaziga tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kiradi. Tahdidlar sifatida esa – yangi model uchun qonunlar va me'yoriy hujjatlarning aniqlashtirilmaganligi, shuningdek xorijiy ta'lim klasterlari bilan raqobatlashish zarurati ko'rsatib o'tiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim klasterlari milliy iqtisodiyotda ta'lim sifatini oshirishning yangi modeli sifatida ta'limni ilm va amaliyot bilan uyg'un olib boruvchi, samarali ilmiy tadqiqotlar hamda sifatli ta'lim xizmatlarini yo'lga qo'yuvchi, ishlab

⁸ Education in 2030: five scenarios for the future and talents. <https://www.holoniq.com/2030> (by QS).

⁹ Крайнов Г Н, Панов А И О международном и российском опыте кластеризации высшего образования // Вестник Московского государственного областного университета Серия: Педагогика 2023 № 1 С 6–14. DOI: 10.18384/2310-7219-2023-1-6-14. 8-стр.



chiqarish va biznes sohasini, mehnat bozorini malakali mutaxassislar bilan ta'minlovchi zamonaviy tashkiliy tuzilma sifatida faoliyat yuritib, barqaror taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Taklif sifatida, ta'lim klasterlarining faoliyatini samarali yo'lga qo'yish va takomillashtirish uchun institusional, huquqiy hamda moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish, OTMlarning ta'lim klasteri sifatida faoliyat yuritish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ular uchun imtiyozlar va shart-sharoitlar taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кластеризация в современном образовании: методология и практика / Н. М. Большаков, В.В.Жиделева, Л. А. Гурьева, Е. А. Рауш; науч. рук. д-р экон. наук, проф., акад. РАЕН Н. М. Большаков. — Санкт-Петербург: СПбГЛТУ, 2016. — 200 с. ISBN 978-5-9239-0688-2.
2. Портер М. Международная конкуренция: Конкурентные преимущества стран. Пер. с англ./Под ред. И с предисловием В.Д.Щетинина. - М.: Международные отношения, 1993. — 896 с.
3. Портер М. Конкуренция.: Пер. с англ.: Уч. пос. - М.: Издательский дом "Вильямс", 2000. — 495 с.
4. Clark, B.R. (1983). The Higher Education System: Academic Organization in Cross-national Perspective. University of California Press: Los Angeles, CA.
5. Leydesdorff, L., & Etzkowitz, H. (2001). The Transformation of University-Industry-Government Relations. Electronic Journal of Sociology, 5, 338-344.
6. Крайнов Г Н, Панов А И О международном и российском опыте кластеризации высшего образования // Вестник Московского государственного областного университета Серия: Педагогика 2023 № 1 С 6–14. DOI: 10.18384/2310-7219-2023-1-6-14. 8-стр.
7. Sölvell, Ö., Lindqvist, G., & Ketels, Ch. (2003). The cluster initiative greenbook. 94 p.
8. Michael J. Enright, 2003. "Regional Clusters: What We Know and What We Should Know", Advances in Spatial Science, in: Johannes Bröcker & Dirk Dohse & Rüdiger Soltwedel (ed.), Innovation Clusters and Interregional Competition, chapter 6, pages 99-129, Springer.
9. Education in 2030: five scenarios for the future and talents. <https://www.holoniq.com/2030> (by QS).
10. <https://scholar.google.com/> Google Scholar ilmiy bazasi ma'lumotlari.

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
